

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Jahongirov Burxon</i> O'ZBEKISTON VA BUYUK BRITANIYA MUNOSABATLARI	13-18
<i>Kenjayev Sardor Nurmurod o'g'li</i> AMIR TEMUR DAVRIDA MINTAQADA KATOLIK CHERKOVI FAOLIYATI	19-23
<i>Atamuratova Dilafruz Rashidovna</i> XORAZM TARIXINI O'RGANISHDA "TARJIMON" GAZETASINING AHAMIYATI	24-28
<i>Karimbayeva Salomatxon, Isxakov Bexzod Barkamalovich</i> FARG'ONA VODIYSI O'ZBEKLARI MODDIY MADANIYATIGA DOIR QARASHLAR TAHLILI	29-34
<i>Лукашова Наталья Михайловна</i> ИСТОРИЯ ТАШКЕНТА 30-Х ГОДОВ XVIII - ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЫ XIX ВЕКА, ПРЕДСТАВЛЕННАЯ В РУССКИХ ИСТОЧНИКАХ	35-40
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> 1991–2025-YILLARDA O'ZBEKISTON-HINDISTON DIPLOMATIK VA TA'LIMIY HAMKORLIGINING RIVOJLANISHI: TARIXIY ASOSLAR VA ZAMONAVIY ISTIQBOLLAR	41-44
<i>Turdimuratov Yangiboy Allamuratovich</i> ETNOIQTISODIYOT XO'JALIK FAOLIYATI SEGMENTI SIFATIDA, UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, FUNKSIYALARI VA SHAKLLARI	45-52
<i>Tursunov Farrux G'ulomovich</i> QASHQADARYO VOHASI TOJIKLARINING HUNARMANDCHILIK TAOMILLARIDAGI O'ZGARISHLAR	53-58
<i>Mullajanova Xosiyat Yazdankulovna</i> XIX ASR OXIRIDA RUS GEOGRAFIK JAMIYATNING ILMIY TADQIQOTLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI	59-63
<i>Муминов Азизбек</i> ИСТОРИЯ ЖИЗНИ И НАУЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РАФАЭЛЯ ПАМПЕЛЛИ, ПРИЕХАВШЕГО В ТУРКЕСТАН В НАЧАЛЕ XX ВЕКА	64-69
<i>Suyarov Maxmudjon Sobirjon o'g'li</i> YUNON-BAQTRIYA TANGALARIDA AYOLLAR OBRAZI – DINIY-SIYOSIY RAMZ SIFATIDA	70-74
<i>Tuyev Fazliddin Erkinovich</i> BUXORO, NAVOIY VA SAMARQAND VILOYATLARIDAGI MUZEYLARINING XORIJIY ALOQALARI	75-80
<i>Mamatqulov Bekzod Sherozovich, Shonazarov Elnur Abbos o'gli</i> QASHQADARYO VILOYATIDA AYOLLAR BANDLIGI VA YENGIL SANOAT TARMOQLARINING IJTIMOIIY-IQTISODIY ROLI: TARIXIY TAHLIL VA NATIJALAR	81-85

<i>Jumayeva Shohida Choriyevna</i> SURXONDARYO VILOYATIDA CHORVACHILIK SOHASIDA MUTAXASSISLAR TAYYORLASH JARAYONIDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLAR	86-90
<i>Azatov Allayar</i> RIVOJLANGAN O'RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDA QUYI AMUDARYO HAVZASI VA "XORAZM DENGIZI" TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLAR	91-99
<i>Ro'ziyeva Mashxura Abdimuminovna</i> LO'LILARDA O'ZLIKNI ANGLASHNING ZAMONAVIY JIHATLARI	100-105
<i>Orunbayev Asli</i> IKKINCHI MASHRUTIYAT JARAYONIDA JÖN TURKLAR HARAKATI VA RESPUBLIKA G'OYALARINING SHAKLLANISHI	106-113
<i>Matyaqbov Toyirjon Sultanbayevich</i> XORAZM VOHASI NEOLIT DAVRI O'RTA BOSQICHI KULOLCHILIGI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR	114-116

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna, Abduljalilov Xojiakbar Abduljalil o'g'li</i> O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA XUSUSIY SEKTORNING O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	117-122
<i>Bazarova Gulnora Gulamovna</i> O'ZBEKISTON IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI.(UMUMIY MAQSADLAR YO'LIDAGI RIVOJLANISH).....	123-127
<i>Yadiyarova Shahnoza</i> THE ROLE OF THE MARKETING SYSTEM IN INCREASING THE COMPETITIVENESS OF LOCAL ENTERPRISES	128-135
<i>Нурмуродов Камолитдин Пирмаматович</i> НАУЧНЫЕ ВЗГЛЯДЫ К ПОНЯТИЮ ФИНАНСОВЫЕ РЕСУРСЫ	136-141
<i>Mamatqulova Muxlisa Mamirjanovna</i> O'RMON XO'JALIGINI MOLIYALASHTIRISHNING BYUDJET VA BYUDJETDAN TASHQARI MANBALAR HISOBIGA MOLIYALASHTIRILISHI	142-146
<i>Olimjonova Sexriyo Muzaffar qizi</i> TURIZM INDUSTRIYASI VA MEHMONDO'STLIK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH	147-150
<i>Anvarova Muhsinakhon Otabek kizi</i> THE ROLE OF BIOSPHERE RESERVES AND NATIONAL PARKS IN TOURISM	151-154

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i> TECHNICAL DEVELOPMENT AS AN ETHICAL-STRATEGIC RESOURCE	155-158
<i>Adilov Zafar Yunusovich</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING INSON KAMOLATI HAQIDAGI FALSAFIY QARASHLARI	159-165

<i>Xo'janova Tamara Jo'raevna</i> YANGI DAVR VA HOZIRGI ZAMON FALSAFASIDA AXBOROT URUSHLARINI O'RGANISHNING PARADIGMALARI	166-170
<i>Narziyev Zubaydillo Ibodilloevich</i> AZIZIDDIN NASAFIYNING "ZUBDAT UL - HAQOYIQ" ASARI TASAVVUF FALSAFASIGA OID MUHIM MANBA	171-175
<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> YOSHLARDA MA'NAVIY VA AXLOQIY QIYMATLAR: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY O'RTASIDAGI TENGSIZLIKLAR VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	176-179
<i>Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich</i> UMAR SUXRAVARDIYNING "AVORIF UL-MAORIF" ASARINING IJTIMOIY-AXLOQIY TAHLILI	180-185
<i>Shamsutdinova Nigina Karimovna</i> ABU ALI IBN SINO IRFONiy QARASHLARI: «TA'BIRI MANZIL» ASARI MISOLIDA	186-190
<i>Pardayeva Marhabo Davlatovna</i> "ODAMIYLIK" TUSHUNCHASINING ZAMONAVIY KONTEKSTDA TRANSFORMATSIYASI	191-197
<i>Aripova Zulfiyaxon Solijonovna</i> SHARQ FALSAFASIDA IJTIMOIY ADOLAT TAMOYILLARI: FOROBIYNING FALSAFIY MEROSI MISOLIDA	198-203
<i>Muxtorova Tutixon</i> ZAMONAVIY DUNYODA YOSHLARNING MA'NAVIY-RUHIY BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY MASALALARI	204-211
<i>Xakimov Abdulboqi</i> YOSHLARDA MANTIQUIY VA TANQIDIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA FALSAFANING AHAMIYATI	212-216
<i>Sardorbek Jabbarov Buron o'g'li, Mirzakhmedov Abdurashid Mamasidiqovich</i> ISTE'MOLCHILIK JAMIYATIDA AHOLINING ISTE'MOL ME'YORI	217-224
<i>Taniqulov Jonibek Ashirkulovich</i> TA'LIM MADANIYATI VA UNING FALSAFIY FUNDAMENTLARI: KONSEPTUAL YONDASHUVLAR, GNOSEOLOGIK ILDIZLAR VA AKSIOLOGIK TAHLIL	225-229
<i>Бердалиева Севара Дамировна</i> СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТРУДОВ АЛЛАМА ЮСУФА ХОСА ХАДЖИБА В РЕШЕНИИ СОВРЕМЕННЫХ ЭТИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ	230-234
<i>Хушбоков Ойбек Уралович</i> СОВРЕМЕННАЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОНЦЕПТОСФЕРА УЧИТЕЛЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ	235-239
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i> VOLTER DAVRIDA FRANSIYADA MA'NAVIY MIHITNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	240-244
<i>Muxiddinova Hakimaxon G'ulomovna</i> EKOLOGIK TAFAKKUR VA YASHIL IQTISODIYOT – UCHINCHI RENESSANSNING YANGI FALSAFIY PARADIGMASI SIFATIDA	245-250

<i>Zokirov Mirzo</i> MAMLAKATLARNING TANAZZUL VA TARAQQIYOTINI BELGILOVCHI IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLAR	251-255
--	---------

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Jo'rayev Nabi Narziyevich</i> O'ZBEK MILLIY LINGVOMADANIYATINING QADIMIYLIK VA ZAMONAVIYLIK ASOSLARI	256-262
<i>Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> PRAGMATICS OF GENDERED COMMUNICATION IN ENGLISH	263-267
<i>Zaripova Matluba Kulfidinovna</i> GRAMMATICAL MEANS OF EXPRESSING PEJORATION IN UZBEK AND RUSSIAN	268-271
<i>Sayipova Dilobar Raximovna</i> ADABIYOT FANIGA OID KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIQLARINING AHAMIYATI	272-275
<i>Soibova Gulchiroy Bakhtiyorjon qizi</i> TRANSLATION ISSUES IN THE GENERAL AND SPECIFIC OCCURRENCE OF THE HORSE IN ENGLISH AND UZBEK CULTURES	276-281
<i>Zokirova Shaxzoda Nodirjon qizi</i> TELEVISION AS A RHETORICAL ARENA: THE MANIFESTATION OF CLASSICAL RHETORICAL CANONS IN MODERN TV GENRES	282-288
<i>Abdujalilova Ruxshona Abdug'afforzoda</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KRIMINALINGVISTIK BIRLIKLARINING SHAKLLANISHINING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI	289-293
<i>Abduraximova Feruza Boxadirovna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA OT YASOVCHI QO'SHIMCHALARNING QIYOSIY TAHLILI	294-300
<i>Jalolova Feruza Normurodovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK XALQ ERTAKLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI	301-305
<i>Ahrorova Nigina Anvarovna</i> MIFOLOGIK TASAVVURLAR MUAYYAN VOQELIK MOHIYATI	306-309
<i>Razikov Baxtiyor Kosimovich</i> MEMLAR TILIDAGI NEOLOGIZM: QOIDABUZARLIKMI YOKI INNOVATSIYAMI? O'ZBEK RAQAMLI DISKURSI MISOLIDA	310-314
<i>Kutbiddinova Nazokatkhon Dovudkhon qizi</i> GENDER-BASED DIFFERENCES IN THE USE OF PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES	315-319
<i>Nazarova Sabrina Zafarjon qizi</i> YOZMA NUTQDAGI GRAMMATIK BUZILISHLAR: AGRAMMATIK DISGRAFIYANING LINGVISTIK VA NEYROPSIXOLOGIK ASOSLARI	320-323
<i>Ёлдашалиева Мадина Зиёджон кызы</i> ЖЕНСКОЕ СЧАСТЬЕ КАК ПРИНЯТИЕ ЛЮБВИ И ЗАЩИТЫ В ПОВЕСТИ ЧИНГИЗА АЙТМАТОВА «ТОПОЛЁК МОЙ В КРАСНОЙ КОСЫНКЕ»	324-326

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Salimova Diyoraxon Baxtiyorjon qizi</i> HAVO TRANSPORTIDA TASHUVCHI JAVOBGARLIGINING NAZARIY DOKTRINASI	327-333
<i>Abdullayev Rustam Kaxramanovich</i> JINOYATLARNI TERGOV QILISHDA RAQAMLI DAKTILOSKOPIYANING IMKONIYATLARI	334-339
<i>Давронов Атобек Равшанович</i> ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ВСПОМОГАТЕЛЬНЫЙ СУБЪЕКТ УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА: ДОКТРИНАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ	340-349
<i>Eshturdiyeva Farangiz Baxodir qizi</i> O'ZBEKISTONDA HUQUQ IJODKORLIGI SIYOSATI: STRATEGIK PRINSIPLAR VA ULARGA YANGICHA NAZARIY YONDASHUV	350-355
<i>Исламов Самандар Олимжон угли</i> ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ КРИПТО-АКТИВОВ В СТРАНАХ СНГ: АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ РЕШЕНИЯ	356-363
<i>Uteniyazov Keulimjay Kuanyshbayevich</i> AYBLOV TUSHUNCHASI, TURLARI VA UNING JINOYAT-PROTSESSUAL HUQUQ TIZIMIDAGI O'RNI	364-370
<i>Ikramov Abrorbek Kamoliddinovich</i> ASSOZ BOYISH NATIJASIDA VUJUDGA KELGAN MAJBURIYATLAR	371-375
<i>Muxitdinova Firuza, Saidakamal Mamasoliyev</i> ZAMONAVIY AXBOROT MAKONIDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI	376-380
<i>Бахриддинова Бехруза Бахриддиновна</i> ХАРАКТЕРИСТИКА ОСНОВНЫХ ПОДХОДОВ К СОВРЕМЕННОМУ ПОНИМАНИЮ ИНФОРМАЦИОННОГО ОБЩЕСТВА	381-388
<i>Axmedov Dilshod Baxramovich</i> MA'MURIY SUDLARDA PROKUROR ISHTIROKINI SAMARALI TA'MINLASHNING AMALIY MASALALARI	389-394
<i>Shodmonov Farrux Fayzullo o'g'li</i> DAVLAT BOSHQARUVIDA TRANSCHEGARAVIY SUVLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	395-401
<i>Bozorov Ulug'bek</i> TEXNIKA YO'NALISHI OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNI KASBIY-HUQUQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MODEL I	402-407
<i>Nurullayeva Djamilya Sayfiyevna</i> O'ZBEKISTONDA SPORT TASHKILOTLARINING HUQUQIY MAQOMI VA ULARNING MOLIVAVIY MUSTAQILLIGI	408-413
<i>Reymbayeva Guldaulet Kurbanbayevna</i> TURIZM XIZMATI SOHASIDA ISTE'MOLCHI HUQUQLARINI HUQUQIY TA'MINLASH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI	414-420

<i>Shirinqulov Baxtiyor Iftixor o'g'li</i> MEHNATNI MUHOFAZA QILISH QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI TERGOV QILISHDA KO'ZDAN KECHIRISH TERGOV HARAkatINI O'TKAZISHNING TAKTIK XUSUSIYATLARI	421-428
<i>Salomov Xumoyun</i> OMMAVIY-HUQUQIY MUNOSABATLARDA QONUNIYLIKNI TA'MINLASHDA PROKURATURA ORGANLARINING AHAMIYATI	429-433
<i>Kakhramonova Aziza</i> THE PRINCIPLE OF INTERNATIONAL LAW ENSURING THE RIGHT OF A CHILD TO LIFE, SURVIVAL AND DEVELOPMENT AND ITS ESSENCE	434-437
<i>Xoliqova Gavhar Ramazon qizi</i> XALQARO XUSUSIY HUQUQDA ALIMENT MAJBURIYATLARINI TARTIBGA SOLISHNING KOLLIZION MASALALARI	438-444
<i>Sharipov Firdavs Xolnazarovich</i> OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASINING QONUN IJODKORLIGI FAOLIYATIDA AYRIM YORDAMCHI TUZILMALARNING ISHTIROKI	445-450
<i>Nugmanov Nugman Abdullayevich, Nizomova Nastarin Vladimirovna</i> PARTICIPATION OF WOMEN IN SHAPING THE DIGITAL LEGAL SPACE	451-456
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna</i> TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARINI EMOTSIONAL VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	457-462
<i>Nabiullin Rishat Xismatullovi, Raxmonov Azizbek Abdullajonovich</i> XORIJDA KORPORATIV SPORTNI RIVOJLANTIRISH VA O'ZBEKISTONDA XORIJ TAJRIBASINI JORIY ETISH	463-468
<i>Xudayberganov Otabek Erkinovich</i> BASKETBOL VOSITALARI VA MUAMMOLI O'QITISH USULLARI YORDAMIDA JISMONIY MADANIYAT FAKULTET TALABALARINING KASBIY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	469-474
<i>Nishonova Dilafruz</i> O'QUVCHILARDA IQTISODIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	475-480
<i>Davletyarova Laylo Baxodirovna</i> YENGIL ATLETIKADA TRENERLIK FALSAFASINI RIVOJLANISHI	481-486
<i>Madrahimov Alisher Maxammadibroximovich</i> O'RTA MAKTAB O'QUVCHILARI O'RTASIDA ZO'RAVONLIK PROFILAKTIKASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	487-493
<i>Шавилова Наталья Сергеевна</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА: ВЛИЯНИЕ НА МОТИВАЦИЮ И КАЧЕСТВО ОБУЧЕНИЯ	494-500
<i>Nosirov Murod Zakirovich, Jonibekova Sevara Dilmurod qizi</i> FIZIK JARAYONLARNI KOMPYUTERDA MODELLASHTIRISH ORQALI TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH	501-508

<i>Mattiyeva Feruza Begmatdulabovna</i> ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIK YONDASHUVLAR ASOSIDA TARJIMA DARSLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	509-515
<i>Qarshiboyeva Maftuna Komiljon qizi</i> RAQAMLI MUHITDA O'SMIR YOSHDAGI BOLALARNING ESTETIK EHTIYOJLARINING SHAKLLANISHI	516-519
<i>Usmonqulov Jo'rabek Erkin o'g'li, Kubayiva Sarvinoz Asrorbek qizi</i> TALABALARNING KASBIY MAHORATINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING O'RNI VA AHAMIYATI	520-525
<i>Xayitova Dilovar Ismat qizi</i> STEAM INTEGRATSIYASI ORQALI AXBOROT-PROTSESSUAL TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO'LLARI	526-532
<i>Soliyeva Muqaddas Nurnazarovna</i> THE EFFECTIVENESS OF TASK-BASED LANGUAGE TEACHING (TBLT) IN UZBEK CLASSROOMS	533-537

Received: 15 September 2025

Accepted: 1 October 2025

Published: 10 October 2025

Article / Original Paper

MODERN ASPECTS OF SELF-IDENTITY AMONG THE ROMA

Ruzieva Mashhura Abdimuminovna

Lecturer at Termez University of Economics and Service

E-mail: mashxura.ruziyeva@mail.ru

Abstract. This article examines the modern aspects of self-identity among the Roma people. It explores issues of ethnic identification, cultural heritage, lifestyle, and the role of the social environment in shaping both individual and collective consciousness. Particular emphasis is placed on the preservation of Roma identity in the context of globalization, the continuation of their unique traditions and values, as well as their socio-cultural integration into contemporary society.

Keywords: roma, self-identity, ethnic identification, culture, heritage, globalization, integration.

LO'LILARDA O'ZLIKNI ANGLASHNING ZAMONAVIY JIHATLARI

Ro'ziyeva Mashxura Abdimuminovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada lo'lilar hayotida o'zlikni anglashning zamonaviy jihatlari tahlil qilinadi. Unda etnik identifikatsiya, madaniy meros, turmush tarzi va ijtimoiy muhitning shaxsiy hamda jamoaviy ong shakllanishidagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, globallashuv jarayonida lo'lilar o'zligini asrash, o'ziga xos qadriyat va an'analarni davom ettirish masalalari hamda ularning zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy integratsiyasi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: lo'lilar, o'zlikni anglash, etnik identifikatsiya, madaniyat, meros, globallashuv, integratsiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I10Y2025N16>

Kirish. Har bir xalqda o'zlikni anglash – u yoki bu etnik guruhga mansubligini tushunishi, idrok etishi, his qilishdir. Ma'lumki, o'zlikni anglash bu etnik o'zlikni anglash bilan bog'liq bo'lib, ya'ni etnik guruh yashovchanligini va uning taraqqiyotini belgilashida alohida o'rin tutadi. O'zining kelib chiqishi, tarixiy taqdiri, madaniy qadriyatlari haqida jamoaviy tasavvurlarga ega bo'lgan ko'plab etnik jamoalar va xalqlar dunyoda ko'p bo'lib, shulardan biri lo'lilar ajdodlarining etnik tarixi qanday kechganligi, ota-bobolari qaysi yurtlarda bo'lganligi, qanday xo'jalik mashg'uloti bilan shug'ullanganligini asta-asta unutishyapti.

Bugungi kunda o'zlikni anglashning kognitiv tarkibiy qismi nisbatan pastligi zamonaviy jamiyatda yoshlarning o'zligini anglashi o'zgarib borayotganligi, aralash nikohlarning paydo bo'lishi sababli ijtimoiylashuv, ya'ni milliy madaniyat va tarixiy xotiradan o'zlarini unutishga harakat qilishmoqda. Shuningdek, lo'li yoshlarining madaniy qadriyatlari tizimida o'zaro ijtimoiy va madaniy muhitga moslashuvchanligini kuzatish mumkin. Moslashuvchanlik yoshlarning hayotiy maqsadlarini va qarashlarini o'zgartiradi.

Hozirda butun yer yuzida keng tarqalgan lo'lilar etnologiyasini o'rganishda ham yuqorida ko'rsatilgan yondashuvlar yaxshi samara bermoqda. Ammo, lo'lilar mavzusi mahalliy

va jahon tadqiqotchilari tomonidan aksariyat hollarda voqea-hodisalarga asoslanib o'rganilgan. Ijtimoiy, madaniy, siyosiy, diniy va gender tarixining tadqiqotlari nisbatan kamroq bajarilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Surxon vohasida lo'lilar boshqa xalqlardan farqli tarzda ajralgan holdagi hayot tarzi va an'anaviy madaniyatini saqlab kelmoqda. An'anaviy madaniyatining saqlanishi ma'lum ma'noda ularning azaliy kasbi tilanchilikni davom ettirishiga omil bo'lib xizmat qilmoqda. Qolaversa, tilanchilikning borligi ularni atrofdagi boshqa aholidan ajralib turishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa ularning boshqa xalqlarga qo'shilib ketmasligi, o'zlarining o'zligini anglashga asos bo'lmoqda.

Mahalliydashgan lo'lilarning ijtimoiy hayotida asrlar davomida etnik jarayonlar, ularning turmush tarzini o'zgarishiga, nisbatan tezroq o'troq hayotga o'tishiga olib kelgan. Ular tuman va shaharlardagi aholidan dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq kabi yangi kasblarni o'zlashtirishib borishgan. Natijada, an'anaviy mashg'ulot tilanchilikka ehtiyoj qolmagan. Asosiy daromad manbaini tilanchilikda deb bilish, degan g'oya o'z kuchini yo'qota boshladi. Mehnat muhojirligida ishlash barobarida ular yangi-yangi hunar va kasblarni egallay boshlashdi.

Lo'lilar tumanlarning markazlardan uzoqda joylashgan qishloqlarga ko'chib ketishgan yoki borib joylashishgan. Shaharlashgan yoki sanoatlashgan markazlardan yiroqda bo'lgan qishloqlarda, ular tabiiyki an'anaviy mashg'ulot hisoblangan tilanchilik qila olmagan. Bu yerlarda eng qulay mashg'ulot dehqonchilik va chorvachilik bo'lganligi bois ular tilanchilikdan voz kechib, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanishgan. Shu tarzda o'zlikni anglashda o'ziga xos o'zgarishlar sodir bo'lgan.

Lo'lilarga xos mentalitet uzoq tarixiy jarayonda shakllanib, xo'jalik faoliyati va tabiiy sharoitidan kelib chiqqan holda hayot tarzini o'zida mujassamlashtirgan. 1956-yil 5-oktyabrda SSSR Oliy soveti Rayosatining "Lo'lilarni turg'unlashtirish va ularni ijtimoiy mehnatga jalb qilish" haqida Farmonning [6] qabul qilinishi, ularning o'troq hayot tarziga o'tishini tezlashtirgan omillardan biri hisoblanadi. Ammo, lo'lilar bir joyda turib qolmaslik, doimiy harakatda bo'lish, atrofdagi mahalla va qishloqlarni aylanib kelish ular uchun tark etib bo'lmas odat bo'lib qolgan.

Muhokama va natijalar. Xalqlarning mentaliteti madaniy munosabatlar jarayonida o'sha etnosning ong va ruhiyat tizimiga joylashadi. Har bir shaxsga bolaligidanoq ona tili, xalq og'zaki ijodi, maishiy sharoitlarni o'zlashtirish orqali o'z xalqining mentaliteti singib boradi. Bolalik davridan mentalitet shakllanib borib, shaxs o'zida milliy madaniyatini va u yashab turgan madaniy muhit bilan bog'lik yuzaga kelgan yangi ko'rinishlarni ham qamrab oladi.

To'g'risi shundan iboratki, har qanday inson ham hayoti mobaynida o'zi uchun yangi bir madaniy muhit doirasiga tushib qolgan paytlarda, mentaliteti ham o'zgarib borishi mumkin ekan. Masalan, lo'lilar ilgarigi zamonlarda darbadar hayot kechirishganligi ma'lum. Ma'lumki, lo'lilar keyinchalik turg'unlashib, biron-bir hududda muqim yashay boshlagach, atrofdagi mahalliy aholi bilan o'zaro ishonch juda muhim ekanligini tushunishgan. Lo'lilarning turmush tarzi, shug'ullanayotgan mashg'uloti, yurish-turishi, muomalasi va boshqa shu kabi omillar atrofdagilarda shunday tasavvurlarning hosil bo'lishiga olib kelgan bo'lishi mumkin.

Lo'lilar kiyinishidagi ayrim elementlar asrlar davomida ham o'zgarmaganligiga guvoh bo'lamiz. Lo'lilar hech qachon kalta, tor, yengi kalta kiyim kiyishmaydi. Erga teggan ayollar bosh yalang yurishi mumkin emas, ko'ylakning uzunligi to'pig'igacha bo'lishi lozim. Yosh qizlar turmushga chiqquncha o'zlariga, yuzlariga oro berishlari mumkin. Erga teggan qiz uchun bu

taqiqlanadi. Kiyinishdagi bu tartib va qoidaga amal qilinmasa urug'doshlari tanqidiga uchrashadi [11].

Bugungi kunda lo'lilar o'zligini anglashida identiklikning qanday turlariga ko'ra anglashini ham aniqlab olish muhim hisoblanadi. Masalan, lo'lilarni diniy identiklikka ko'ra farqlab bo'lmaydi. Butun dunyoga keng tarqalgan lo'lilar hamisha yashagan o'lka aholisi sig'ingan hamda o'zlari uchun foyda keltirishi mumkin bo'lgan dinlarga e'tiqod qilishgan. O'zbekiston lo'lilari islom diniga sig'inishadi, shu bilan birga o'zlarigagina xos e'tiqod elementlari saqlanib qolganlar.

Etnik o'zlikni anglashning muhim belgilaridan biri til bo'lib, lo'lilarning tili va lahjasi bir-biridan ajralib turadi. Masalan, O'zbekistonning turli mintaqalarida lo'lilar, asosan, birinchi til sifatida tojik, undan keyin esa o'zbek tilida muloqot qilishadi. Surxondaryo viloyatining shimoliy hududlarida yashovchi lo'lilar tili Tojikistonning Sug'd viloyati tojiklari lahjasiga o'xshab ketadi. Surxondaryo lo'lilarida tojik va o'zbek tilidan tashqari o'zlarining mug'at tili elementlari saqlanib qolgan. Mug'at tili lo'lilarga xos bo'lgan ayrim so'zlar va tojik tilining o'ziga xos shevasi aralashuvidan tashkil topgan bo'lib, bu tilni o'zbek va tojiklar tushunmaydi [2].

UNESCO Interactive Atlas of the World's Languages in Danger ro'yxatiga ko'ra, O'rta Osiyo lo'lilarining tili yo'qolib borayotgan tillar guruhiga kiritilgan. «Aniq xavf ostida» toifasiga kiritilgan bu tilda faqat qariyalar so'zlashadi.

O'rta Osiyo lo'lilarining so'zlashuv tili haqida ayrim adabiyotlarda ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, mualliflar tomonidan ularning lafzi mug'at, abdol tili yoki zaboni panoyi kabi lahjalari qayd qilingan. Jumladan, I.Oranskiyning asarida bu borada atroflicha ma'lumotlar qayd qilingan [10]. Lafzi mug'at lo'lilarga xos va o'zbek yoki tojiklar uchun tushunarsiz til hisoblanadi. Abdol deganda «gadoy», «darvesh» kishi tushuniladi. Shuningdek, artistlar, sozandalar, qalandarlar, maddohlarning shevasi «abdol (abdol) tili» deyilgan [8]. Bu yerda lo'lilarning azaliy kasbiga ham nisbat berilgan. Zaboni panoyi esaforschada «yashirin til» degan tushunchani bildiradi. Lo'lilarda bunday yashirin tillarning (argo) mavjud bo'lishi yoki bo'lmasligi ijtimoiy shart-sharoitlar, turmush tarzi, mashg'ulot turi bilan izohlash mumkin. Masalan, turli hududlarda darbadar kezib ko'chma savdo, hunarmandchilik, sayyor tomoshalar ko'rsatuvchilik bilan shug'ullanuvchi guruh vakillari kasbiy faoliyatlarini himoya qiluvchi vosita sifatida yashirin tildan foydalanishgan. O'troq hayot tarzini olib borib, asosan dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi lo'lilar uchun esa, yashirinchasoz'zlashishga ehtiyoj bo'lmagan. Demak, u yoki bu mashg'ulot turiga, ijtimoiy darajasiga qarab, qolaversa, yashash hududiga qarab lo'lilarning tillarida farqlanishlar paydo bo'lgan.

Bugungi kunda lo'lilarining tilida mug'atcha so'zlar nisbatan kam saqlanib qolingan bo'lsada, ichki muloqotda yoshi kattalar orasida ham yosh avlod vakillari orasida ham qo'llaniladi.

Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, lo'lilarni hududiy identiklik jihatidan ham o'rganish muammoli hisoblanadi. Masalan, Buxoro, Toshkent, Farg'ona vodiysi, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo lo'lilarning bir-biridan farqli jihatlari bor. Umumiy etnik xususiyatlar saqlangan bo'lsada, har bir hudud lo'lilari tili, tashqi ko'rinishi, kiyinish madaniyati, urf-odatlar jihatidan farqlanishi mumkin.

Turli qishloqlarda lo'lililarning har xil etnik guruhlar aralash yashashadi. Biroq, ular o'zaro hududiy jihatdan bir jamoa sifatida o'zlikni anglaydilar. Masalan, Sherobod lo'lilari, Denov lo'lilari, Oqtepa lo'lilari va hokazo.

Surxondaryo lo'lilari ham tojik tilida, ham o'zbek tilida so'zlashadi. Toshkentda lo'li ayollari ro'mol o'ramasliklari mumkin, ammo Surxondaryoda yashaydigan lo'lilar ro'molsiz yurmaydi. Bu o'sha hududda uzoq davrlar yashab turib, atrofdagi aholi bilan birgalikda o'sha joyga xos xususiyatlar kasb etganligi bilan bog'liqdir.

Yaqin 10-20 yilgacha lo'li yigitlarining boshqa millatga uylanishga ruxsat berilmagan. Bunga oqsoqollar juda qattiq qarshilik qilishgan. Xalq orasida «Lo'liga uylanganning 7 pushti kuyadi», «Lo'liga uylanganning oxirati kuyadi» degan gap bor. Bu gapni ularning o'zlari chiqarishgan, sababi, lo'li ayollari qadimdan tilamchilik, mayda-chuyda sotish, folchilik uchun ko'chaga chiqishadi. Boshqa yomon ko'z bilan qaramasin degan ma'noda bu gapni chiqarishgan [4].

O'z-o'zini nomlash – endoetnonim ham etnik guruh tomonidan o'z identikligining bir belgisi sifatida qabul qilingan [9]. Ma'lumki, Surxon vohasi lo'lilari o'zlarini mug'at deb nomlaydilar. «Mug'at» so'zi mug' — oyga, olovga sig'inuvchi tushunchasini bildirib, lo'lilarning qadimiy e'tiqodi etnik guruhning shu nom bilan atalishiga asos bo'lgan. Biroq, bugungi kunda guruh vakillari bu so'zning lug'aviy ma'nosini bilmaydilar. Ushbu nomni bobolardan o'tib kelgan etnonim sifatida e'tirof etishadi. Demak, Surxondaryo viloyati lo'lilari misolida aytilsa, etnonim o'zlikni anglashda muhim sanalmaydi.

Lo'lilarning xo'jalik va madaniy aloqalarida o'zbeklar, tojiklar va boshqa xalqlar bilan yaqinlashuvi natijasida, ularning aksariyati o'zga etnomadaniy muhitga singib ketishdi. Natijada, ular o'zlarining millatlarini atashsa-da ham farqlanishlar turli xil tus oldi. Surxondaryo viloyatining turli joylarida yashaydigan lo'lilarni o'zligini anglashida farqli jihatlari ham bo'lib, sotsiologik so'rovnoma natijalariga asoslanadigan bo'lsak, Denov tumanida joylashgan qishloqlarda yashaydigan lo'lilar hujjatlarida o'zlarini lo'li, ba'zan o'zbek millati vakili sifatida qayd etishgan. Shahardagi lo'lilarning aksariyati esa o'zlikni anglashda ikki xil qarash bo'lib, ular o'zlarini «lo'li» deb bilsalar-da, ammo qo'shni bo'lgan boshqa xalqlardan o'zlarini farqlamaydilar, ajratmaydilar. Shaxsiy hujjatlarida esa o'zbek yoki tojik sifatida qayd qilinadi.

Shubhasiz, bunday holat ma'lum ma'noda aralash nikohlarning ham ta'sirida bo'lib, eri lo'li, xotini o'zbek oilalarida tug'ilgan bolalarning millati ota-onalari tomonidan o'zbek, deb qayd qilingan [2].

Yana bir holat ko'p hollarda lo'li oilasida voyaga yetgan bola pasport olish jarayonida shaxsiy identikligini lo'li, deb his qilsa-da, pasportiga o'zbek tarzda yozdiradi. Buning sababi, ayrim axborotchilar pasportda lo'li deb qayd qilinsa, ularni ishga joylashishlari, haydovchilik guvohnomalarini olishi va boshqa shunga o'xshash kundalik hayotda ayrim qiyinchiliklariga duch kelishi mumkinligi bilan bog'liq, deb izohlashadi. Shuning uchun ular o'zlarini o'zbek, tojik deb qayd etishga harakat qiladilar [4].

Lo'lilarning milliy identikligini anglashida tarixiy vatan bilan bog'liq qarashlarga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Ma'lumki, lo'lilarning tarixiy vatani Hindiston hisoblanadi. Shu bois XX asrning oxiri XXI asr boshlariga qadar lo'lilar o'zlikni anglashda hindlar bilan bog'lash, ularga bevosita aloqador xalq sifatida talqin qilish ko'proq mavjud bo'lgan. Tadqiqotlar jarayonida bu holatning misoli sifatida lo'li ayollarining yuzlariga, peshonalariga xol qo'yish an'anasida kuzatish mumkin. Shuningdek, ularning kiyinishda turli ranglarga bo'lgan intilish, oyoq yalang yurish ham hindlarga taqlid qilish belgisi, deb ta'kidlashadi. Lekin, hozirda bunday qarashlar keng tarqalmagan va lo'lilarning aksariyati o'tmish ajdodlaridan farqli ravishda

o'zlarini o'zbek xalqining bir bo'lagi sifatida e'tirof etishadi. O'zlikni anglashda bunday o'zgarishning asosiy sababi, fuqarolik identikligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Zamonaviy lo'li yoshlari o'zlarini hindlarning avlodlari deb bilmaydilar. Ota yurtlari deb, O'zbekistonni tan olishadi.

Lo'lilarning hududiy manzillari nuqtai nazaridan olib qaralganda, Surxondaryo viloyatining turli hududlarida yashaydigan lo'lilarning o'zlikni anglashi farqli ekanligini ko'rish mumkin. Termiz, shahri atrofidagi lo'lilar ko'p asrlik o'troq turmush tarzida hayot kechirishi natijasida savdo-sotiq, hunarmandchilik kabi kasblarni egallab tilanchilikdan qisman voz kechishgan va natijada atrofda aholi bilan madaniy aloqalarni bog'laganligi bois o'zlarini o'zbek, tojik sifatida e'tirof etishadi [2].

Shuningdek, Denov tumanida ham shunga o'xshash holat kuzatiladi. Qishloq hududida tilanchilik qilish yoki ikkilamchi mahsulotlarni yig'ish bilan shug'ullanish imkoniyati yo'q. Qishloqlar dehqonlar va chorvadorlardan iborat bo'lib, ko'proq natura xo'jaligi (ayirboshlash) munosabati ustun turgan. Natijada, qishloq xo'jaligi sohasini o'zlashtirgan lo'lilarning ijtimoiylashish jarayoni faol kechib, o'zbeklar bilan qorishuv sodir bo'lgan. Bu holat o'zlikni anglashdagi o'zgarishlarning asosiy omili bo'lib xizmat qildi [1].

Ismoiltepa, Zang qishlog'i lo'lilari esa yuqoridagi ikki hudud lo'lilaridan farq qiladi. O'zlikni anglashda lo'lilarga mansublik yaxshi saqlanib qolgan. Atrofdagi aholiga aralashib ketmagan. Chunki, ularning ijtimoiylashish jarayonlari boshlanganligiga ko'p vaqt bo'lgani yo'q. Ikkinchidan, ularning hududi shahar atrofi bo'lganligi uchun tilanchilik qilishga va ikkilamchi mahsulotlar yig'ishga qulay bo'lib, an'anaviy turmush tarzini tark etganlari yo'q [3].

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillarida ijtimoiy tabaqalanish sababli kam ta'minlangan hamda puldor «yangi lo'lilar» qatlami vujudga kela boshladi. Kam ta'minlangan nochor oilalar bolalarining ko'pchilik qismi maktablarga ahyon-ahyonda qatnasa, yana boshqa bir qismi umuman qatnamay qo'ydilar. Ana shu ahyon-ahyonda qatnaydigan yoki qatnamaydigan maktab yoshidagi lo'lilarning ko'pchiligi shaharlarda isiriq tutatib, mahallalarda uyma-uy yurib tilanchilik qilishmoqda [3]. Bu singari salbiy ko'rinishlarni Surxondaryo viloyatining turli hududlaridagi lo'li bolalar o'qiydigan maktablarning barchasida kuzatish mumkin.

Ijtimoiy tabaqalanish sababli vujudga kelgan «yangi lo'lilarning» ko'pchiligi bolalarini oliy ma'lumot olishi uchun harakat qilmoqdalar. Lo'lilarning mahalliy aholi orasida tarqoq holda yashagan qismi qo'shni xalqlarning tili, urf-odati, moddiy va ma'naviy madaniyatini egallab, asta-sekin qo'shib ketmoqdalar [4].

Mahalliy aholi bilan yonma-yon yashashi natijasida lo'lilar orasida savodxon kishilar paydo bo'la boshlagan. Ulardan o'rta ma'lumotli, o'rta-maxsus va hatto oliy ma'lumotli insonlar yetishib chiqqan. Ayrim o'rta-maxsus va oliy ma'lumotli lo'lilar o'z qavmidan ajralib, o'zga etnik muhitga aralashib ketishga harakat qilmoqdalar [2].

Surxon vohasida yashagan lo'lilar orasida savodxonlik darajasi yetarli darajada emasligi ularning mahalliy xalqlardan alohidalanib, tig'iz sharoitda yashashiga hamda ularni jamiyatning iqtisodiy va madaniy jihatdan qoloq qismi bo'lib qolishiga sabab bo'lmoqda.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Surxondaryo lo'lilarining o'zligini anglashi masalasi turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Bu turfa xillik birinchidan tarixiy davr bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan joylashgan hududi bilan bog'liq bo'lgan. Tarixiy davr nuqtai nazaridan lo'lilarning o'troqlashishi, ijtimoiylashishi, tevarak atrofdagi aholi bilan etnomadaniy yaqinlashishi

ularning o'zligini anglashini ham evrilishlarga uchrashiga sabab bo'ldi. Buning dalili sifatida keksalar va yoshlarning tarixiy xotira, mentalitet, an'analarga sodiqlik tamoyillari o'rtasidagi tafovutlarni misol qilib keltirish mumkin. Kexsa avlod ota-bobolari to'g'risidagi hayotiy voqealar, afsonalarni eslashadi, biroq yoshlar bu kabi xotiralarni saqlab qolishni muhim deb bilmaydi. Kexsa avlod ichki nikohlar masalasida qat'iy tursa, yosh avlod aralash nikohlarni inkor qilmaydi. Kexsa avlod an'anaviy turmush tarzi qoniqtirsa, yosh avlodni rivojlanish, qandaydir natijalarga intilish kam bo'lsada ko'zga tashlanadi. Umuman, avlodlar o'rtasida milliy qadriyatlar o'lchovi farq qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Dala yozuvlari, Surxondaryo viloyati, Denov tumani, Olovuddin qishlog'i, 2022- yil, avgust.
2. Dala yozuvlari, Surxondaryo viloyati, Denov tumani, Olovuddin qishlog'i, 2021- yil, avgust.
3. Dala yozuvlari, Surxondaryo viloyati, Jarqo'rg'on tumani, Oqtepa qishlog'i, 2021-yil, avgust.
4. Dala yozuvlari, Surxondaryo viloyati, Jarqo'rg'on tumani, Qorayantoq qishlog'i, 2022 -yil, may.
5. Dala yozuvlari, Surxondaryo viloyati, Sariosiyo, Jarqo'rg'on, Denov tumanlari, 2022-yil, iyul-avgust.
6. Dala yozuvlari, Surxondaryo viloyati, Sherobod tumani, Sherobod qishlog'i, 2021-yil, avgust.
7. Dala yozuvlari, Surxondaryo viloyati, Sherobod, Jarqo'rg'on tumanlari, 2021- yil, iyun.
8. Qorayev S. O'zbekiston viloyatlari toponimlari. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005. – B.58.
9. Маликов А. Этническая классификация тюркоязычного населения долины Среднего Зерафшана в официальных дискурсах (вторая половина XIX – начало XX вв) // Эволюция института власти в древней, средневековой и новой истории Казахстана и сопредельных государств: Мат-лы междунар. науч. - теоретич. конф., Алматы, 2016. – С.218.
10. Оранский И. Таджикоязычные этнографические группы Гиссарской долины (Средняя Азия). Этнолингвистическое исследование. – Москва: Ин-т востоковедения, 1983. – С.32, 60.
11. Цыгане / Большая Советская Энциклопедия. – Москва, 1978. – С. 608.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).